

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Pardayeva Maftuna Baxtiyor qizi

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy Fanlar
fakulteti Amaliy Psixologiya 3-bosqich talabasi
[https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6366250](https://doi.org/10.5281/zenodo.6366250)

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda toleranlilikning o'рни, xalqlar o'rtasida tinchlikni hamda diniy bag'rikenglikni ta'minlashning dolzarbliligi, inson qadriyatini ulug'lashda tarbiyaning ahamiyati, shuningdek, O'zbekistonda saqlanib va rivojlanib kelayotgan qadriyatlarning jahon miqyosida tutgan rolini va qanchalik darajada yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda samaradorligini keltirib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Tolerantlilik, fanatizm, irqilashtirish

Bizning shu mo'jazzgina yashil dunyomizda 7 milliarddan ortiqroq inson iste'qomat qiladi. Barchasining dini, tili, millati, qadriyatlari, huquqlari va erkinliklari bor. O'znavbatida esa barcha uchun xavfsizlikni ta'minlash masalasi tug'iladi, ming afsuslar bo'lsinki turli milliy va diniy nizolar, to'qnashuvlar, o'zaro urushlar xavfsizlik masalasining yemirilishiga olib kelib qo'ymoqda. Vaqtlar o'tgan sayin xavfsizlik masalasi butun jahon miqyosida dolzarb muammo tusiga aylanib bormoqda, shuningdek, O'zbekistonda ham diniy bag'rikenglik, inson huquqlarini ta'minlash va mamlakatimizda iste'qomat qilayotgan 130 dan ortiq millatlarning tinch – totuvligini ta'minlashga ham huquqiy, ham qadriyat jihatidan shunday yondashilganki, butun dunyo o'zining yuksak bahosini berib kelmoqda. O'zbek xalqi azal – azaldan insonparvarligi, mehmondo'stligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi, oilada har bir farzandga mehmon kelganida "Assalomu alaykum", "Xushkelibsiz" kabi xush yoqadigan jumlar, qanday millat vakili bo'lishidan qat'iy nazar hurmat qilish o'rgatiladi. O'zbek xalqiga boshqalarning fikr va qarashlarini o'zining tushunchalariga zid kelsada, imkon qadar sabr va chidam bilan tinglab, to'g'ri qabul qilish singdiriladi va bu asrlar mobaynida qadriyat sifatida shakillanib kelmoqda.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zaminda diniy nizolar inson tinchligini, huzr - xalovatini buzib, barchani sergak tortishga va imkon qadar jamiyatda tolerantlilikni yoyishga chaqirmoqda. Dunyo taraqqiyotini ta'minlashning muhim vositasi hisoblangan bag'rikenglikni ta'minlash borasida 1995 yil 16 - noyabrda BMT tizimida YuNESKO bosh koinferensiyasining 28 – sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" qabul qilindi unda bir qator majburiyatlar belgilab berildi, shulardan biri diniy bag'rikenglikni imkon qadar targ'ib qilishdir. Ko'rinib turibdiki, tolerantlilik jamiyat yuksalishing muhim omilidir. Tolerantlik

(lot.tolerantia – sabr , toqat, chidam) – o'zgalarning fikrlari, odatlari, g'oyalari, e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lishda qo'llaniladi. Bu yo'nalishning muhim tamoyili, har bir shaxs o'z e'tiqodiga amal qilishda mustaqildir va boshqalar ham bu huquqqa ega ekanligini tan olishdir. Bunda o'zining qarashlarini boshqa birovga singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Vatan taraqqiyoti yo'lida tolmaydigan, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarni va milliy ongini rivojlantirish, bugungi zamon talablariga mos bo'lgan tolerantlikni va diniy bag'rikenglikni rivojlantirish bugungi jamiyatning ustivor talabidir. Negaki, diniy ustunlik qilish xalqlar orasida nizo va urushlarning sababchisiga aylanib bormoqda. Eng yomon tarafi bunday nizolar oqibatida bitta xalq, bitta mamlakat tanazzulga yuz tutib, yo'q bo'lib ketish xavfi tug'ilmoqda.

Yurtimizda ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yuzasidan bir qator salmoqli chora – tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2017 yil 25 – may kuni Toshkent shahrida O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiyo qo'mitasi yurtimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora – tadbiri to'g'risida"gi davra suhbatini tashkil etildi, chet el vakillari uchun milliy – madaniy markazlar faoliyati yo'lga qo'yildi, 20 dan ortiq tilda ommaviy axborot nashrlari yo'lga qo'yildi, eng muhimi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xalqlar totuvligi 18 moda bilan ifodalandi.

Turli millat vakillariga mansub fuqarolarimizning va yurtimizga tashrif buyiruvchilarning milliy umumxalq bayramlarimizni tashkillashtirishda va o'tkazishda faol qatnashayotgani o'zaro hurmat, sahovat va osoyishtalikning belgisidir, bunday yuksak tuyg'ular "O'zbekiston yagona uyimiz" degan so'zlarning ostida bir xalq bo'lib yashash imkonini beradi. Butun o'zbek xalqini birdamlikka, tinchlikka undovchi qadriyatlarimiz bor ekan biz boshqalarni ham vatandoshimizdek ko'rib tinch – totuv umrguzoronlik qila olamiz. Afsuski, bu tinchlikka rahna soluvchilar ham yo'q emas. Din niqobi ostida e'tiqoddan vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm (o'ta ketgan mutassiblik) sifatida foydalanishga urinmoqdalar. Fanatizmga xos xususiyat o'zi e'tiqod qilayotgan dinni yagona din deb bilib boshqa dinni rad etishdir. Bu oqimga yoki bo'lmasa gruhlarga qo'shilib qolgan kishilar jamiyatda vayronkorlik, buzg'unchiliklar, nizolar keltirib chiqarishga urinadi, taraqqiyot ildiziga bolta urishadi. Ogohlik davr talabiga aylanib borayotgan bir paytda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham o'zining yig'ilishlari hamda "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida bir necha bor loqaydlikdan qaytarib, elparvar va hushyorlikka chorlaydi.

Bizga ma'lumki, har qanday turdagi nizo va janjallar moliyaviy taqchillikka olib keladi. Birgina barchaga ayon bo'lgan Birinchi Jahon Urushini keltirish mumkin. Asosiy sabalaridan birini tashkil etgan oliy irq lashtirish (yagona bir irq hukmronligi) uyishtirilgan jahon urushi millat ayirmachiligining, millionlab insonlar halokatining, vayronagarchiliklarning, psixologik taranglikning, taroqqiyot yuztubanligining, moliyaviy zararining sababchisiga aylandi. Shu kunlarda sodir bo'layotgan qo'shni yurt Avg'onistondagi vaziyat ham din niqobi ostidagi qo'poruvchilarning dunyo miqyosidagi keltirib chiqarayotgan nizolaridir.

Tarix zarvaraqlariga nazar solib, hamda o'z qadriyati va mintalitetidan kelib chiqqan holda O'zbekiston millatlar tinchligini ta'minlash maqsadida o'z ichki qoidalarida boshqa davlatning ichki ishlariga aralashmaslik, urush holatlarida qo'shilmaslik siyosatini yo'lga qo'ydi va bu qanchalar to'g'ri qadamligini bugungi tinch, faravon hayotimiz misoloda ko'rib kelmoqdamiz. Xalqlar o'rtasidagi bayramlar, do'stlik aloqalari, bitimlar millatlar o'rtasidagi do'stlik ko'prigini yanada mustahkamlaydi hamda asrlar davomida saqlanib kelayotgan muqaddas qadriyatlarimiz yanada keng yoyilishini ta'minlaydi.

Xulosa. Zamonamiz kunsayin shiddan bilan rivojlanib bormaqda. To'xtovsiz rivojlanayotgan dunyoda tinchlik naqadar oliy ne'mat ekanligini kundan kun anglab bormoqdamiz. Bugun bizlarga ma'nan yetuk salohiyatli, odobli, bilimli va tarbiyali yoshlar kerak, bunday yoshlarni kamol toptirish esa oiladan boshlanadi. Shu sabali ham yoshlarni adolatli, mehribon, oliyjanob, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sadoqatli, e'tiqodli qilib tarbiyalash mamlakatimiz tinchligi va faravonligini ta'minlashning eng samarador yo'lidir.

Tarbiya hayotning yo ibtidosi, yo intihosi bo'lishi mumkin. Allomamiz A.Avloniy bekorga "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat – falokat masalasudir" deb aytmaydi.

Diniy bag'rikenglik, millatlararo hurmat, mehmondo'stlik, sahovatlilik allaqachon qadriyatimizga aylanib ulgurgan, uni barchamiz asrab – avaylab yoshlarga ham o'rgatishimiz, va har daqiqada buzg'unchi kuchlardan ehtiyot bo'lmog'imiz darkor. Shu yurt bizniki, unda yashayotgan barcha millat esa bizning vatandoshlarimizdir. Shu elni, shu xalqni asrab – avaylash barchamizning ustivor burchimizdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Islom Avdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'aviyat yengilmas kuch" Toshkent – 2008
2. Vikipediya
3. Kun.uz
4. Staff.tiame.uz